Ключевые слова: инвестиционный климат, Doing Business, Global Competitiveness Index, Economic Freedom Index, нормативно-правовая база, экономические реформы, цифровизация, защита частной собственности.



KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida xalqaro reytinglar endilikda faqat investitsion jozibadorlikni baholash vositasi emas, balki davlatlarning institutsional sifati, huquqiy barqarorligi va boshqaruv samaradorligini kompleks aks ettiruvchi strategik indikator sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, kapital harakatining tezlashuvi, ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining keng joriy etilishi hamda investorlar uchun huquqiy kafolatlar ahamiyatining ortishi global reytinglarning mazmuni va metodologiyasini tubdan yangilamoqda. Shu sharoitda mamlakatlarning investitsion huquqiy siyosati xalqaro reytinglar talablari bilan uzviy uyg'unlikda shakllanishi zarur bo'lgan muhim yo'nalishga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng investitsion muhitni yaxshilash borasida izchil siyosat yuritib kelgan bo'lsa-da, aynan 2016-yildan boshlab iqtisodiy liberallashtirish, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va tadbirkorlik faoliyatini huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chuqur tizimli islohotlar bosqichi boshlandi. Dastlabki yillarda qabul qilingan Harakat strategiyalari normativ-huquqiy bazani yangilash va biznes muhitini soddalashtirishga xizmat qilgan bo'lsa, hozirgi bosqichda ushbu siyosatning asosiy urg'usi investorlarga uzoq muddatli huquqiy ishonchni ta'minlash, raqamli tartibga solish mexanizmlarini joriy etish hamda xalqaro reytinglar metodologiyasiga mos institutsional muhitni shakllantirishga qaratilmoqda.

Bugungi kunda Doing Business reytingining transformatsiyasi, Global Competitiveness Index'da institutsional sifat va innovatsion salohiyatning ustuvor yo'nalishga aylanishi, shuningdek, Economic Freedom Index'da mulk huquqi, sud mustaqilligi va davlat aralashuvi darajasining chuqur tahlil qilinishi O'zbekiston investitsion huquqiy siyosati oldiga yangi talablarni qo'yimoqda. Endilikda normativ-huquqiy bazaning mavjudligi emas, balki uning amalda ishlashi, huquqni qo'llash barqarorligi va investorlar uchun prognoz qilinuvchan muhit yaratish darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonning investitsion huquqiy siyosatini global reytinglarning zamonaviy talablari asosida takomillashtirish masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mavjud tadqiqotlarda ko'proq islohotlarning umumiy natijalari yoritilgan bo'lib, aynan xalqaro reytinglar mezonlari bilan normativ-huquqiy mexanizmlar o'rtasidagi tizimli bog'liqlik yetarli darajada chuqur tahlil qilinmagan. Ushbu maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirish, global reytinglar nuqtayi nazaridan O'zbekiston investitsion huquqiy siyosatining hozirgi holatini baholash va uni takomillashtirish yo'nalishlarini ilmiy asoslashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Global iqtisodiy reytinglar – Doing Business, Global Competitiveness Index (GCI) va Economic Freedom Index (EFI) – davlatlarning investitsion muhitini baholashda eng nufuzli mezonlar sifatida e'tirof etiladi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu reytinglar davlat siyosati uchun nafaqat tashqi baholash vositasi, balki normativ-huquqiy islohotlarni chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi strategik indikator sifatida talqin qilinadi. Xalqaro moliya institutlari, iqtisodiy tadqiqotlar markazlari hamda akademik mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar reytinglar metodologiyasi huquqiy tartibga solish sifatini, mulkiy huquqlar kafolatini, shartnomalarning bajarilishi mexanizmlarini, davlat boshqaruvining samaradorligini chuqur o'rganishga asoslanishini ko'rsatadi. Shu sababli, reytinglarning davlatning investitsion siyosatiga ta'siri, avvalo, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bilan bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston bo'yicha adabiyotlarda so'nggi yillarda qabul qilingan investitsion-huquqiy hujjatlar aynan xalqaro reytinglar mezonlari bilan uyg'unlashgan holda ishlab chiqilgani qayd etiladi. O'zbekiston Respublikasining 25.12.2019 yildagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son¹ Qonun mamlakatda investitsiyalarni tartibga soluvchi eng asosiy huquqiy manbalardan biri sifatida ko'riladi. Jahon tajribasi asosida ishlab chiqilgan mazkur qonun investorlarning huquqiy maqomini aniqlashtiradi, investitsiya shartnomalarini bajarish kafolatlarini mustahkamlaydi, ekspropriatsiya va noqonuniy aralashuvga qarshi himoya mexanizmlarini joriy etadi. Akademik manbalarda ta'kidlanishicha, ushbu qonun reytinglarda baholanadigan "huquqiy barqarorlik", "investorlarni himoya qilish", "regulyativ shaffoflik" kabi ko'rsatkichlarni yaxshilashga qaratilgan muhim qadam bo'ldi.

Heritage Foundation tomonidan tuziladigan Economic Freedom Index (EFI) bo'yicha ilmiy tadqiqotlar O'zbekistonda iqtisodiy erkinlikka oid normativ-huquqiy islohotlarning izchilligi va samaradorligini tahlil qiladi. Indeks tarkibidagi mulk huquqi, sud mustaqilligi, davlat halolligi, fiskal erkinlik, savdo erkinligi kabi komponentlar O'zbekistonda huquqiy tartibga solishning kuchli va zaif jihatlarini aniqlash imkonini beradi. So'nggi yillarda ushbu indeksda O'zbekistonning ayrim ko'rsatkichlari yaxshilangani ilmiy adabiyotlarda investitsion islohotlar, sud-huquq tizimining modernizatsiyasi va tartibga solish yukini kamaytirish bilan bog'lanadi. Shu bilan birga, fiskal siyosatning barqarorligi, bojxona tartibotining soddalashtirilishi va davlat xarajatlarning shaffofligi bo'yicha hali ham takomillashtirish zarur bo'lgan yo'nalishlar sifatida qayd etiladi.

1 <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>



Doing Business reytingiga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda esa O'zbekistonda biznes yuritish uchun normativ tartiblarning soddalashtirilishi, davlat organlari faoliyatida raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi, ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarining tezlashuvi hamda kredit axborotlari bozorining rivoji alohida qayd etiladi. 2010–2020-yillarda O'zbekistonning Doing Business reytingidagi o'rni sezilarli yaxshilangani ilmiy manbalarda “regulyativ yukning kamayishi”, “institutsonal o'zgarishlar tezligi” hamda “tadbirkorlik uchun qulay huquqiy sharoit yaratilishi” bilan izohlanadi. Mazkur reyting to'xtatilgan bo'lsa-da, uning metodologiyasi O'zbekistonda investitsion-huquqiy islohotlarning asosiy manbalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Global Competitiveness Index (GCI) bo'yicha adabiyotlarda O'zbekistonning institutsional rivojlanish darajasi, makroiqtisodiy barqarorligi, infratuzilmasi, moliya bozorlari samaradorligi va innovatsion muhitga oid ko'rsatkichlari keng yoritiladi. Tadqiqotchilar GCI indeksining asosiy ustunlari O'zbekistonda biznes muhiti va investitsion muhitni baholashda kompleks yondashuvni shakllantirishini ta'kidlaydilar. Ayniqsa, sud tizimi mustaqilligi, raqobat siyosati, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, bozor institutlarini kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar reytingning asosiy talablariga mos keladi.

Xalqaro tashkilotlar – OECD, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Yevroittifoq – tomonidan tayyorlangan tahliliy hisobotlarda esa O'zbekistonning investitsion-huquqiy siyosatini yanada takomillashtirish uchun bir qator tavsiyalar beriladi. Ular orasida qonunchilikni barqaror va oldindan bashorat qilinadigan qilish, huquqiy normalarning amaliy qo'llanish mexanizmlarini kuchaytirish, investitsiya nizolarini hal qilish jarayonini takomillashtirish, raqobat muhitini mustahkamlash va davlat organlari faoliyatida oshkoralikni kengaytirish kabi masalalar bor. Ilmiy adabiyotlar ushbu tavsiyalarni bajarish O'zbekistonning global reytinglardagi o'rnini yaxshilashga xizmat qilishini qayd etadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, global iqtisodiy reytinglar O'zbekiston investitsion-huquqiy siyosatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular normativ-huquqiy islohotlarga yo'naltirilgan tahliliy mezonlar vazifasini bajarib, davlat siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirishda metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Eng muhimi, reytinglarni yaxshilashga qaratilgan islohotlar investorlarga yanada ishonchli himoya, shaffof huquqiy muhit va barqaror investitsiya sharoitlarini yaratishga xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot O'zbekistonning investitsion-huquqiy siyosatini global iqtisodiy reytinglar — Doing Business, Global Competitiveness Index (GCI) va Economic Freedom Index (EFI) talablariga moslashtirish jarayonini baholashga qaratilgan bo'lib, bir nechta ilmiy yondashuvlar majmuasi asosida olib borildi. Avvalo, normativ-huquqiy tahlil orqali investitsiyalarni tartibga soluvchi asosiy qonunlar, Prezident farmonlari, sud-huquq islohotlari va xalqaro shartnomalar mazmuni reytinglar mezonlari bilan solishtirildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali O'zbekiston tajribasi Sharqiy Yevropa, Markaziy Osiyo va rivojlanayotgan davlatlar modeli bilan taqqoslanib, muvaffaqiyatli islohotlar va samarali huquqiy mexanizmlar aniqlab olindi. Tadqiqotda, shuningdek, reyting metodologiyalarining kontent-tahlili o'tkazilib, indekslarda baholanadigan huquqiy ko'rsatkichlar (mulk huquqi, shartnomalarni ijro etish, fiskal erkinlik, davlat boshqaruvi sifati) bilan milliy qonunchilik uyg'unligi baholandi.

OECD, Jahon banki va Heritage Foundation kabi tashkilotlar hisobotlaridan foydalanilgan ekspert tahlili O'zbekistonda islohotlarning real natijalari va mavjud muammolarni aniqlash imkonini berdi. Bundan tashqari, mamlakatning so'nggi yillardagi reytinglardagi o'zgarishlari bo'yicha statistik tahlil amalga oshirilib, investitsion siyosatdagi o'zgarishlar bilan o'zaro bog'liqlik o'rganildi. Yakuniy natijada tizimli yondashuv orqali O'zbekistonning investitsion-huquqiy muhitidagi kuchli va zaif tomonlar, shuningdek, global reytinglar orqali yuzaga kelayotgan imkoniyat va cheklovlar aniqlanib, ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning iqtisodiy islohotlar sur'ati va investitsion muhitning shakllanishi so'nggi yillarda global reytinglardagi dinamik ko'rsatkichlar orqali yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xalqaro reytinglar — Doing Business, Global Competitiveness Index (GCI), Economic Freedom Index (EFI), shuningdek, Global Innovation Index, Human Capital Index, Logistics Performance Index kabi ko'rsatkichlar mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashda muhim metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Ushbu reytinglarning har biri O'zbekistonda olib borilayotgan institutsional islohotlarning samaradorligini, iqtisodiy boshqaruvning sifati va investitsion muhitning barqarorligini ko'rsatib beradi.

Doing Business reytingi faol bo'lgan yillarda O'zbekiston eng tez islohot qiluvchi davlatlar qatoriga kirib, 2012–2020-yillar oralig'ida 70 dan ortiq pog'onaga ko'tarildi. Bu natijalar biznesni boshlash, kredit olish tizimini takomillashtirish, soliq ma'murchiligini optimallashtirish va davlat xizmatlarini elektronlashtirish bilan bog'liq islohotlar natijasidir. Ilmiy manbalarda Doing Business indikatorlarining o'sishi mamlakatda regulyativ yukning kamaygani, tadbirkorlik muhitining liberallashtirish va huquqiy tartibga solish barqarorligining kuchayganidan dalolat berishi ta'kidlanadi.



Economic Freedom Index (EFI) O'zbekistonning iqtisodiy erkinlik darajasini baholar ekan, so'nggi yillarda muayyan ijobiy trend qayd etilmoqda. Indeks metodologiyasi bo'yicha mulk huquqi himoyasi, sud tizimi samaradorligi, davlat halolligi, biznes va savdo erkinligi kabi sohalar tahlil qilinadi. O'zbekiston 2024-yilda 55,9 ball ko'rsatkich bilan 103-o'rinni egallagan bo'lsa-da, iqtisodiy erkinlik bo'yicha islohotlarning izchil davom etayotgani qayd etiladi. Ilmiy adabiyotlar mazkur reytingdagi o'sishni iqtisodiy boshqaruvning shaffoflashuvi, fiskal intizomni mustahkamlash, raqamli xizmatlar joriy etilishi va tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi me'yorlarning qisqartirilishi bilan izohlaydi.

Global Competitiveness Index (GCI) bo'yicha O'zbekiston 2019-yilda 141 davlat orasida 94-o'rinni egallagan. Mazkur indeksning institutsional muhit, infratuzilma, makroiqtisodiy barqarorlik, bozor samaradorligi, texnologik tayyorgarlik va innovatsion imkoniyatlar kabi ustunlari bo'yicha mamlakat rivojlanishining muhim yo'nalishlari yoritilgan. O'zbekistonda makrobarqarorlik, bozor hajmi va transport infratuzilmasining rivojlanishi ko'rsatkichlari o'sish qayd etgan bo'lsa-da, sud mustaqilligi, raqobat muhitini kuchaytirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish hali ham dolzarb vazifalar bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, Global Innovation Index (GII) va Human Capital Index (HCI) mamlakatning innovatsion salohiyati va inson kapitali sifati bo'yicha hali katta salohiyat mavjudligini ko'rsatadi. O'zbekistonning innovatsion infratuzilma, ilmiy-tadqiqot faoliyati, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirish bo'yicha ijobiy tendensiyalari kuzatilayotgan bo'lsa-da, bu sohalarida rivojlangan davlatlar bilan farq sezilarli bo'lib qolmoqda. Logistics Performance Index (LPI) tahlillari esa eksport-import operatsiyalari samaradorligi, bojxona jarayonlarining tezkorligi va logistika tizimining raqobatbardoshligi bo'yicha izchil islohotlar talab qilinishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, global reytinglar O'zbekistonning iqtisodiy siyosati va institutlar samaradorligini baholashda muhim ko'rsatkichlar majmuasi hisoblanadi. Ular mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning natijadorligini xalqaro mezonlar bilan solishtirishga, investitsion muhit barqarorligini mustahkamlashga va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Reytinglar dinamikasi O'zbekistonda huquqiy, institutsional va iqtisodiy islohotlar to'g'ri yo'nalishda olib borilayotganidan dalolat bersa-da, raqobat muhitini chuqurlashtirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va sud-huquq tizimini mustahkamlash kabi ustuvor yo'nalishlar ustida izchil ishlash zarurligini ilmiy asosda ko'rsatib bermoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston 2016–2024-yillarda xalqaro reyting ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilagan. Quyidagi jadvalda mamlakatning asosiy reytinglardagi o'zni dinamikasi keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonning xalqaro reyting ko'rsatkichlari (2016–2024)²

Reyting	2016	2018	2020	2024
Doing Business	87	74	69	Tugatilgan
GCI	95	84	108	90
EFI	150	140	114	108

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Doing Business reytingida 2016–2020-yillarda 87-o'rindan 69-o'ringa ko'tarilib, 18 pog'onaga yaxshilangan. Economic Freedom Index bo'yicha ham ijobiy dinamika kuzatilmoqda — 150-o'rindan 108-o'ringa ko'tarilish. Ammo Global Competitiveness Index bo'yicha ayrim yillarda pasayish kuzatilgan bo'lib, bu mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha qo'shimcha choralar zarurligini ko'rsatadi.

Soliq tizimi islohotlari. 2019-yilning yanvar oyidan yangi Soliq kodeksi kuchga kirdi. Kodeksda soliq stavkalari pasaytirildi (foyda solig'i 14 % dan 12 % gacha, QQS 20 % dan 15 % gacha), soliq imtiyozlari kengaytirildi va raqamli soliq boshqaruvi tizimlari joriy etildi. 2020-yildan boshlab soliq organlarining biznesga o'tkazadigan tekshiruvlari 50 % ga qisqartirildi.

Raqamlashtirish choralari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi ““Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son³ Farmoni bilan “Raqamli O'zbekiston - 2030” strategiyasi qabul qilindi. Strategiya asosida elektron hukumat tizimlari takomillashtirildi, davlat xizmatlarining 90 % dan ortig'i onlayn formatga o'tkazildi. ASAN xizmat markazlari tizimi yaratildi, bu esa investorlarga davlat xizmatlaridan foydalanishni sezilarli darajada osonlashtirdi (2-jadval).

² Manba: Jahon Banki, JIE, Heritage Foundation ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

³ <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

2-jadval. O'zbekiston va mintaqaviy davlatlarning reytinglar bo'yicha taqqoslash tahlili (2024)⁴

Davlat	GCI o'rne	GCI bali	EFI o'rne	EFI bali	To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar (mlrd \$)
O'zbekiston	90	52.8	108	55.3	6.4
Qozog'iston	42	62.5	35	70.1	24.1
Gruziya	59	60.3	16	76.2	1.8
Armaniston	61	59.8	32	71.3	0.7
Tojikiston	105	48.2	127	52.7	0.4

Taqqoslash tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston mintaqaviy mamlakatlar orasida o'rtacha ko'rsatkichlarga ega. Qozog'iston va Gruziya ham GCI, ham EFI bo'yicha ustunlik qiladi, bu esa mazkur davlatlarga investitsiyalar oqimining katta hajmda yo'naltirilishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekistonning ustun tomonlari bozor sig'iminining kattaligi, aholi sonining ko'pligi va qulay geografik joylashuvi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, sud tizimi mustaqilligi, korrupsiya darajasi hamda kadrlar malakasi bo'yicha hali ham sezilarli rezervlar mavjud.

Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston so'nggi 8 yil davomida investitsion muhitni yaxshilash borasida muhim yutuqlarga erishdi. Ushbu davr mamlakat iqtisodiyoti uchun tub burilish bosqichi bo'lib, investitsiya siyosatining liberallashtirilishi, normativ-huquqiy bazaning modernizatsiya qilinishi hamda davlat boshqaruvi tizimida shaffoflik darajasining oshirilishi bilan tavsiflanadi. Avvalo, investitsiyalarni tartibga solishga doir qonunchilik tubdan qayta ko'rib chiqildi. 2019-yilda qabul qilingan "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun investorlarning huquqiy maqomini, ularning mol-mulkini himoya qilish kafolatlarini, investitsiya shartnomalarining bajarilishini ta'minlash mexanizmlarini hamda nizolarni xalqaro arbitrajda hal etish imkoniyatlarini aniq belgilab berdi. Mazkur qonunning xalqaro standartlarga moslashtirilgani investorlarning mamlakat iqtisodiy tizimiga bo'lgan ishonchini sezilarli darajada oshirdi.

Davlat tomonidan tartibga solish yukining kamaytirilishi ham investitsion muhitning yaxshilanishida muhim omil bo'ldi. Elektron hukumat tizimining joriy etilishi, ruxsatnoma va litsenziya tartibotlarining qisqartirilishi, tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonining soddalashtirilishi biznes uchun qulay sharoit yaratdi. Doing Business reytingida O'zbekistonning o'rinlari 2015–2020-yillar davomida sezilarli darajada yaxshilangani aynan ushbu islohotlarning amaliy natijasi hisoblanadi. Xususan, "Biznesni boshlash", "Soliqlarni to'lash", "Elektr ta'minotiga ulanish" kabi yo'nalishlarda tartibotlarning keskin qisqarishi tadbirkorlar faoliyatini ancha yengillashtirdi.

So'nggi yillarda investitsiya hajmlarining barqaror o'sishi kuzatildi. Xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi kengayib, ularning iqtisodiyotdagi ulushi oshdi. Energetika, kimyo sanoati, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, transport va logistika kabi strategik tarmoqlarda yirik xorijiy investorlar bilan hamkorlikda muhim loyihalar amalga oshirildi. Ushbu o'zgarishlar, bir tomondan, liberal iqtisodiy siyosatning mantiqiy natijasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari va reyting agentliklari tomonidan mamlakatga berilgan ijobiy baholarning amaliy samarasidir.

Sud-huquq tizimini isloh qilish investitsion muhitni mustahkamlashning asosiy shartlaridan biri sifatida namoyon bo'ldi. Sud mustaqilligini ta'minlash, shartnomalarning ijrosini kafolatlash hamda investorlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi mamlakatning iqtisodiy erkinlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Economic Freedom Index ko'rsatkichlariga ko'ra, O'zbekiston so'nggi yillarda mulk huquqi, davlat halolligi va biznes erkinligi yo'nalishlarida muayyan o'sishga erishdi. Bu holat investorlar uchun nisbatan ishonchli huquqiy infratuzilma shakllanayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, iqtisodiyotning ochiqligi va xalqaro integratsiya siyosati ham investitsion muhitning yaxshilanishiga xizmat qildi. Bojxona tizimida soddalashtirilgan tartiblar joriy etildi, soliq siyosati barqarorlashtirildi hamda valyuta bozoridagi cheklovlar bekor qilindi. Ushbu islohotlar O'zbekistonning Global Competitiveness Index va boshqa xalqaro indikatorlardagi o'rnini mustahkamlashga yordam berdi.

Umuman olganda, so'nggi 8 yil davomida O'zbekistonning investitsion siyosati sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi samaradorligi, iqtisodiy erkinlik va biznes muhiti yo'nalishlarida amalga oshirilgan tizimli o'zgarishlar mamlakatni Markaziy Osiyodagi eng jadal rivojlanayotgan investitsion markazlardan biriga aylantirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsion muhitni yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan har bir bosqich O'zbekistonning global iqtisodiy jarayonlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, investitsion muhitni shakllantirishda huquqiy barqarorlik, shaffof boshqaruv, tartibga solish yukining minimallashtirilishi hamda moliyaviy bozorlarning rivojlanganligi davlatning global iqtisodiy raqobatbardoshligini belgilovchi hal qiluvchi omillar hisoblanadi. So'nggi o'n yilliklarda Sharqiy

4 Manba: JIE, Heritage Foundation, UNCTAD ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo va Baltika mamlakatlari tajribasi investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan institutsional islohotlarning murakkab, ammo samarali mexanizmlarini ochib bermoqda. Mazkur tajriba O'zbekiston uchun ham muhim va amaliy saboqlarni taklif etadi.

Sharqiy Yevropada, xususan Gruziya, Estoniya va Polsha misolida investorlarni jalb qilishning eng muhim omili sifatida samarali va soddalashtirilgan regulativ muhit tan olingan. Gruziya 2005–2015-yillar davomida Doing Business reytingida eng katta sakrashni amalga oshirgan bo'lib, tadbirkorlikni boshlash, soliqlarni to'lash va shartnomalarni ijro etish jarayonlarini tubdan optimallashtirdi. Bunda asosiy e'tibor huquqiy tizimning soddaligi va uning amaliyotdagi barqarorligiga qaratildi. O'zbekiston uchun ushbu tajriba shuni ko'rsatadiki, huquqiy normalarning mavjudligi o'z-o'zidan yetarli emas, balki ularning amaliyotda to'liq va izchil ishlashi real investitsion natijalarga olib keladi.

Janubi-Sharqiy Osiyo tajribasi, xususan Singapur va Vyetnam misolida, investitsiyalarni jalb qilishda institutsional samaradorlik hamda korrupsiyaga qarshi qat'iy siyosatning o'rni alohida ta'kidlanadi. Singapurda investorlar huquqlarining himoyasi eng yuqori darajada ta'minlangan bo'lib, barcha tartib-taomillar to'liq raqamlashtirilgan. Vyetnam esa investitsiyalarni jalb qilishni xalqaro savdo integratsiyasi, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va maxsus iqtisodiy zonalar orqali kuchaytirdi. Ushbu tajriba O'zbekiston uchun shuni anglatadiki, shaffof boshqaruv va raqamli davlat xizmatlari investitsiya oqimining barqarorligini ta'minlaydi, korrupsiyani kamaytiradi hamda bozor mexanizmlarini mustahkamlaydi.

Baltika davlatlari — Estoniya, Latviya va Litva tajribasi investitsion muhitni yaxshilashda raqamli iqtisodiyotning ahamiyati qanchalik yuqori ekanini yaqqol namoyon etadi. Estoniya tomonidan joriy etilgan e-hukumat modeli nafaqat davlat xizmatlarini tezlashtirdi, balki ichki va tashqi investorlar uchun maksimal darajada ochiqlikni ta'minladi. Ushbu tajriba O'zbekiston uchun raqamli transformatsiya jarayonini jadallashtirish zarurligini ko'rsatadi. Raqamlashtirilgan xizmatlar ruxsatnoma, soliq, bojxona va sud jarayonlarining shaffofligini oshirib, investitsiya xavflarini sezilarli darajada pasaytiradi.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarni jalb qilishda huquqiy barqarorlikning uzoq muddatli kafolatlari, mulk huquqlarining daxlsizligi va nizolarni tezkor hal etish tizimi asosiy omillar sirasiga kiradi. Shveysariya, Germaniya va Koreya Respublikasi bu borada yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur davlatlarda investorlarga taqdim etiladigan kafolatlar nafaqat qonun hujjatlarida, balki sud tizimi, arbitraj mexanizmlari va mustaqil tartibga soluvchi organlar faoliyati orqali mustahkamlangan. O'zbekiston uchun ushbu tajriba investorlarning xavfsizlik hissini kuchaytirishning eng ishonchli yo'li sud tizimining mustaqilligini ta'minlash va huquqiy himoya mexanizmlarining ishonchligini oshirish ekanini anglatadi.

Shuningdek, xalqaro tajriba investitsion muhitning ijobiy baholanishi global reytinglarda yuqori ko'rsatkichlarga erishish bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Rivojlangan davlatlarda reytinglar hukumat siyosatini baholashning muhim vositasi bo'lib, amalga oshirilayotgan islohotlarning yo'nalishini belgilashda xizmat qiladi. O'zbekiston uchun ham Doing Business, GCI va EFI indekslarining tahlili islohotlar ustuvor yo'nalishlarini aniqlashda muhim indikator hisoblanmoqda. Ushbu reytinglar metodologiyasi davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning real ta'sir doirasini baholash va investitsiyalar uchun raqobatbardosh sharoitlarni shakllantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, xalqaro tajriba O'zbekiston uchun quyidagi asosiy saboqlarni ilgari suradi: huquqiy barqarorlikni ta'minlash, sud tizimi mustaqilligini kuchaytirish, raqamlashtirilgan boshqaruv tizimiga o'tishni jadallashtirish, korrupsiyaga qarshi qat'iy siyosat yuritish, tartibga solish yukini minimallashtirish hamda investorlarga aniq va ishonchli kafolatlar beruvchi institutsional mexanizmlarni mustahkamlash. Ushbu yo'nalishlar O'zbekistonning investitsion jozibadorligini oshirish, global iqtisodiy tizimda raqobatbardosh o'rin egallash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasining investitsion huquqiy siyosati global reytinglar kontekstida chuqur tahlil qilindi va quyidagi xulosalarga kelindi:

- Birinchidan, mamlakatda 2016-2024-yillar davomida investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha keng qamrovli normativ-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. 150 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi va bu Doing Business reytingida 87-o'ringdan 69-o'ringa ko'tarilishga olib keldi;
- Ikkinchidan, eng katta yutuqlar biznesni soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish va raqamlashtirish yo'nalishlarida erishildi. Shu bilan birga, sud tizimining mustaqilligi, korrupsiya darajasi va innovatsion salohiyat bo'yicha hali ham jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda;
- Uchinchidan, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yuqori natijalarga qat'iy davlat irodasi, radikal islohotlar va doimiy monitoring asosida erishiladi. Gruziya va Singapur tajribasi bu holatni yaqqol tasdiqlaydi;
- To'rtinchidan, O'zbekiston Global Competitiveness Index va Economic Freedom Index reytinglarida yanada yuqori o'rinlarni egallashi uchun sud tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviylashtirish,



innovatsion ekotizimni shakllantirish hamda mintaqaviy moliyaviy markazga aylanish strategiyasini izchil amalga oshirish zarur;

- Beshinchidan, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish jarayonida nafaqat yangi qonunlarni qabul qilish, balki ularni samarali amalga oshirish mexanizmlarini yaratish, ijrosini nazorat qilish va doimiy ravishda takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotda ishlab chiqilgan tavsiyalar O'zbekiston investitsion muhitini xalqaro standartlarga muvofiq yanada yaxshilash va mamlakatni mintaqaviy investitsiya markaziga aylantirish uchun ilmiy asos yaratadi. Kelgusi tadqiqotlarda alohida sektorlar, jumladan IT, turizm va qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida investitsion huquqiy siyosatni yanada chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3107036>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
3. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 24-sentyabrdagi "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi O'RQ-336-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-2055680>
4. World Bank Group. Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies. Washington, DC: World Bank, 2020.
5. World Economic Forum. The Global Competitiveness Report 2024. Geneva: WEF, 2024.
6. Heritage Foundation. 2024 Index of Economic Freedom. Washington: Heritage Foundation, 2024.
7. Demirgüç-Kunt A., Levine R. Finance and Growth: Theory and Evidence // Handbook of Economic Growth. 2018. Vol. 1. P. 865-934.
8. Kaufmann D., Kraay A. Worldwide Governance Indicators. World Bank Policy Research Working Paper. 2020. No. 5430.
9. Xodiev B.X. O'zbekiston Respublikasida investitsion muhitni yaxshilashning huquqiy asoslari. Toshkent: TDYU, 2019. 156 bet.
10. Sharipov Sh.Z. Xususiy mulk huquqlarini himoya qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari. Toshkent: Adolat, 2020. 224 bet.
11. Mahmudov N.M. Raqamli iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy-huquqiy masalalari // Iqtisodiyot va huquq jurnali. 2021. №3. 45-52 betlar.
12. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2023. Berlin: TI, 2023.
13. UNCTAD. World Investment Report 2024. Geneva: United Nations, 2024.
14. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. Toshkent: DSQ, 2024.
15. Acemoglu D., Robinson J.A. Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. New York: Crown Publishers, 2012.
16. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
17. Rodrik D., Subramanian A., Trebbi F. Institutions Rule: The Primacy of Institutions Over Geography and Integration in Economic Development // Journal of Economic Growth. 2004. Vol. 9. No. 2. P. 131-165.
18. La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A., Vishny R.W. Law and Finance // Journal of Political Economy. 1998. Vol. 106. No. 6. P. 1113-1155.
19. Glaeser E.L., La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A. Do Institutions Cause Growth? // Journal of Economic Growth. 2004. Vol. 9. No. 3. P. 271-303.
20. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik hisoboti. Toshkent: MB, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>